

**Kredit kartasining asosiy shartlari to'g'risidagi
AXBOROT VARAQASI ***

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	Bankning nomi: "IPAK YO'LI" AKSIYADORLIK INNOVATSIYA TIJORAT BANKI
	Manzil: O'zbekiston, Toshkent shahri, 100017, A.Qodiriy ko'chasi, 2-uy
	Bank veb-sayti: monix.uz, ipakyulibank.uz
	Telefon raqamlari: 1366; +998787774912

1-bo'lim. Kredit kartasining asosiy shartlari

1.	Kredit kartasining nomi	MONIX kredit-debet kartasi
2.	Karta chiqarilgan to'lov tizimi (VISA, MasterCard, Humo va boshqalar)	VISA
3.	Kredit limiti (minimal va maksimal miqdori)	Minimal: 500 000 sum Maksimal: 50 000 000 sum
4.	Foiz stavkasi (yillik)	41%
	a) xaridlarni amalga oshirishda (va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga)	0%
	b) o'tkazmalarni amalga oshirishda (va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga)	3.5% komissiya, foizsiz davr muddatidan song 41%
	v) kredit kartaga ajratilgan limitni naqdashtirishda (va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga)	3.5% komissiya, foizsiz davr muddatidan song 41%
	g) boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda (yuqorida ko'rsatilmagan)	41%
5.	Kredit kartaning to'liq yillik foiz stavkasi (APR)	45.2%
6.	Foizsiz davr muddati (greys period)	62 kun gacha
7.	Foizsiz davr qanday operatsiyalar uchun amal qiladi?	Qonunchilikda taqiqlanmagan barcha operatsiyalar: Tolovlar; Kartadan kartaga o'tkazmalar; Naqdashtirish; Konvertatsiya
8.	Foizsiz davr qanday operatsiyalar uchun amal qilmaydi?	Kriptohamyonlar va electron hamyonlarni to'ldirish
9.	Har oylik minimal to'lov	Foizlar + foydalanilgan summa tanasidan 5%
10.	Karta bo'yicha qarzdorlikni oraliq to'lash sanasi yoki ushbu to'lovni aniqlash tartibi	Har oyning 16 sanasi
11.	Amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ko'chirma berish sanasi yoki sanani aniqlash tartibi	Har oyning 16 sanasi

12.	Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki muddati o'tgan to'lovlar bo'yicha jarima va penyalari	41%
13.	Kartadagi o'z mablag'lari qoldig'iga foiz hisoblash	Yillik 9%. Bank ish kuni oxirida kartadagi o'z mablag'lari qoldig'i 100 000 so'mdan ortiq bo'lganda. Foizlar har kuni hisoblanadi, to'lov esa oyda bir marta hisobdan ko'chirma olinadigan sanada amalga oshiriladi.
14.	Kredit karta bo'yicha ta'minot (agar mavjud bo'lsa)	Bepul
15.	Kredit kartani rasmiylashtirish usullari va muddati	Mobil ilova orqali bir ish kunida
15.	Kredit karta bo'yicha limitdan voz kechish usullari va muddati	- Bank tomonidan mobil ilovada taklif etilgan oldindan ma'qullangan kredit limitining shartlarini qabul qilmaslik orqali — darhol. - Agar kredit limiti bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lmasa, Bankka yozma ravishda yoki MONIX Mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmati orqali murojaat qilingan kundan boshlab 10 ish kuni ichida kredit liniyasi yopiladi. Agar murojaat ko'rib chiqilayotgan jarayonda to'lanmagan qarzdorlik aniqlansa, kredit liniyasini yopish muddati qarz to'liq qoplangunga qadar uzaytiriladi.
16.	Kredit karta bo'yicha boshqa shartlar (tiklanadigan limit shartlari, bank tomonidan limitni cheklash va bekor qilish va boshqalar)	To'lov muddati 90 kundan ortiq kechiktirilgan hollarda, kredit bo'yicha barcha qarz, muddati o'tgan deb hisoblanadi va mijozdan qarzni to'liq qoplash talab etiladi

2-bo'lim. Kredit karta bo'yicha to'lovlar (komissiyalar) **

1.	Doimiy muddatli to'lovlar (oylik abonent to'lovi va boshqalar)	Bepul
2.	Xaridlarni amalga oshirishda	0%
3.	Boshqa kartaga (hisobvaraqqa) o'tkazmalarni amalga oshirishda	O'z mablag'lariga 0% Kredit mablag'lariga 3.5%

4.	Kredit kartaga ajratilgan limitni naqdlashtirishda	- O'z mablag'laiga 0.5% , qo'shimcha ravishda boshqa banklarning komissiyalari yechib olinishi mumkun - Kredit mablag'lariga 3.5%, qo'shimcha ravishda boshqa banklarning komissiyalari yechib olinishi mumkun - O'zbekistondan tashqarida 3.5% (minimal 20 000 sum), qo'shimcha ravishda boshqa banklarning komissiyalari yechib olinishi mumkun
5.	Boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda	ko'zda tutilmagan
6.	O'zbekistondan tashqaridagi tranzaksiyalar (operatsiyalar) bo'yicha	- O'z mablag'lariga 0% - Kredit mablag'lariga 3.5%
7.	Kredit karta bo'yicha qarzdorlikni to'lash xarajatlari	Bepul
8.	Kredit karta hisobini to'ldirishda (boshqa bankning kartasi, bank kassalari va elektron hamyon orqali to'ldirish xarajatlari)	Ipak Yo'li oraqli to'ldirish 0 Boshqa banklar orqali to'ldirish 0.5
9.	Kredit kartani: a) chiqarganda; b) qayta chiqarganda.	a) Mavjud emas b) Mavjud emas
10.	Boshqa to'lovlar ***	41%

Diqqat bilan o'qib chiqing

Kredit karta rasmiylashtirishga rozilik berishdan oldin diqqat bilan o'qib chiqing!

Siz bankdan kredit kartasining shartlari va qiymati, to'lovlar va hisob-kitoblar tartibi (foizlar, jarimalar va penyalar), kredit kartasi shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlar, kredit kartasi shartnomasi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar va javobgarlik, kredit kartasidan xavfsiz foydalanish, shuningdek, sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar to'g'risida to'liq va batafsil ma'lumot olish huquqiga egasiz.

Agar Sizda shikoyatlar bo'lsa, telefon orqali (1366 va +998787774912) yoki pochta manziliga (100017, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 2) yoki elektron pochtaga (monix_support@monix.uz) murojaat qoldirishingiz mumkin.

Izoh

* Ushbu varaq kredit kartasi shartnomasi yoki kredit kartasini olish uchun ariza o'rnini bosmaydi, balki turli banklarning kredit kartalari shartlarini taqqoslash va kerakli tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.

** 2-bo'limda ko'rsatilgan komissiyalar va to'lovlar kredit kartasiga ajratilgan

*** Ushbu bandeda bank o'z ixtiyoriga ko'ra zarur deb hisoblagan shartlar yoki ma'lumotlarni aks ettiradi

**"MONIX" xizmatlar paketi doirasida xizmat ko'rsatishda "Ipak Yo'li" AITBda mijozlarga
xizmat ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta**

Bankning nomi: "IPAK YO'LI" AKSIYADORLIK INNOVATSIYA TIJORAT BANKI	Amaldagi tahrir: 1.0.2 Boshqaruvning 09.12.2025 dagi bayonnomasi bilan tasdiqlangan. 19.12.2025 dan amal qiladi
Manzil: O'zbekiston, Toshkent shahri, 100017, A.Qodiriy ko'chasi, 2-uy	Aloqa ma'lumotlari: havola orqali
Bank veb-sayti: monix.uz , ipakyulibank.uz	

MUNDARIJA

MUNDARIJA	4
1-QISM. "MONIX" XIZMATLAR PAKETI DOIRASIDA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHDA "IPAK YO'LI" AITBDA XIZMAT KO'RSATISHNING UMUMIY SHARTLARI VA QOIDALARI	5
1-BOB. ATAMA VA TA'RIFLAR.....	5
2-BOB. UMUMIY QOIDALAR	8
3-BOB. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI	9
4-BOB. OFERTANI RO'YXATDAN O'TKAZISH VA QABUL QILISH TARTIBI.....	13
5-BOB. MONIX MOBIL ILOVASIDA MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI VA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI	14
6-BOB. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI	15
7-BOB. FORS-MAJOR	16
8-BOB. KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH VA NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI	17
9-BOB. XIZMATLAR KO'RSATISH MUDDATI VA ULARNI TO'XTATISH TARTIBI	17
11-BOB. YAKUNIY QOIDALAR	17
12-BOB. XAVFSIZLIK BO'YICHA TAVSIYALAR.....	18
2-QISM. "MONIX" XIZMATLAR PAKETI DOIRASIDA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BANK KARTALARINI CHIQARISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISHNING UMUMIY SHARTLARI	20
1-BOB. ASOSIY QOIDALAR.....	20
2-BOB. "MONIX" XIZMATLAR PAKETI DOIRASIDA BANK KARTASINI CHIQARISH VA UNGA XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI	17
3-BOB. OPERATSIYALAR VA TO'LOVLAR.....	21
4-BOB. KREDIT LINIYASINI TAQDIM ETISH VA XIZMAT KO'RSATISH.....	22
5-BOB. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI	25

6-BOB. KARTADAGI O‘Z MABLAG‘LARI QOLDIG‘IGA FOIZLAR HISOBLASH	29
7-BOB. MONIX KREDIT-DEBET KARTASI SHARTLARI	31
8-BOB. MONIX TARIFLARI.....	32
9-BOB. MONIX KREDIT-DEBET KARTASI BO‘YICHA KREDITNING TO‘LIQ QIYMATI	33
3-QISM. MONIX.UZ SAYTIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA FOYDALANUVCHI KELISHUVI.....	35

1-QISM. "MONIX" XIZMATLAR PAKETI DOIRASIDA BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA "IPAK YO‘LI" AITBDA XIZMAT KO‘RSATISHNING UMUMIY SHARTLARI VA QOIDALARI

"MONIX" xizmatlar paketi doirasida bank xizmatlarini ko‘rsatishda "Ipak Yo‘li" AITBda xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari va qoidalari, Jismoniy shaxslarga yo‘naltirilgan tariflar (birgalikda - Shartnoma) rasmiy ommaviy taklif (Oferta) hisoblanadi "Ipak Yo‘li" AITB (keyingi o‘rinlarda matnda - Bank) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq "MONIX" xizmatlar paketi doirasida masofadan turib bank xizmati ko‘rsatish va xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risida Shartnoma tuzadi.

Mijoz ushbu Oferta shartlarini qabul qilish orqali yuqorida keltirilgan barcha shartlar va MONIX tariflariga rozilik bildiradi.

1-BOB. ATAMA VA TA‘RIFLAR

- **Bank** - "Ipak Yo‘li" AITB bosh ofisi va uning filiallari;
- **Mijoz** - Tizimlarga ulangan, Ommaviy oferta shartlariga qo‘shilgan va Hisob egasi hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs;
- **Hisobvaraq** - Mijozning Bankda ochilgan bank hisobvarag‘i bo‘lib, unda Mijozning topshiriqlariga muvofiq, shu jumladan Tizimlardan foydalanish orqali amalga oshirilgan operatsiyalar aks ettiriladi. Shubhalarning oldini olish maqsadida Hisobvaraq deganda milliy va chet el valyutasidagi har qanday bank hisobvarag‘i, shu jumladan, lekin bu bilan cheklanmagan holda, talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘i, karta hisobvarag‘i, muddatli depozit hisobvarag‘i, ssuda hisobvarag‘i tushuniladi;
- **Bank kartasi (kartalari) (keyingi o‘rinlarda Karta, Kartalar)** - Bank tomonidan chiqarilgan, operatsiyalarni, shu jumladan Tizimlardan foydalanish orqali amalga oshirish uchun mo‘ljallangan MTT va XTT bank kartalari;
- **Karta hisobvarag‘i** - pul mablag‘larini tasarruf etish Bank kartasi orqali amalga oshiriladigan va Mijoz tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar, shu jumladan uning topshiriqlari (farmoyishlari) bo‘yicha masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar aks ettiriladigan bank hisobvarag‘i;
- **PIN-kod** - mijoz tomonidan mobil ilova orqali o‘rnatiladigan raqamli kombinatsiya bo‘lib, kartadan POS-terminallar, bankomatlar, bank kassalarida foydalanilganda operatsiyalarni tasdiqlash uchun ishlatiladi;
- **Tizimlar** - Mijozlarga Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi Bankning dasturiy majmualari;

Tizim ishtirokchilari:

- "Ipak Yo'li" AITB - Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bank;
- Mijoz;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Banklararo universal netting axborot tizimi (keyingi o'rinlarda - MUNIS) va boshqa shunga o'xshash hisob-kitob tizimlari;

Kommunal xizmatlar, aloqa xizmatlari, tovarlar va Bank tomonidan belgilanadigan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi, MUNIS yoki boshqa shunga o'xshash hisob-kitob tizimlariga ulangan tegishli billing tizimiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

- Davlat organlari va muassasalari;
- Protsessing markazlari;
- Oluvchi bank (Bank tomonidan belgilanadigan kommunal xizmatlar, aloqa xizmatlari, tovarlar va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektning bank hisobvarag'i ochilgan bank, shuningdek foydasiga Elektron to'lov amalga oshiriladigan bank kartalarining egalari)
- To'lov tizimlari (Click, Payme va boshqalar);
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Axborotlashtirish bosh markazi;
- "MONIX" xizmatlar paketi funktsionalligini ta'minlovchi boshqa texnik va texnologik hamkorlar.
- **Masofaviy bank xizmati (MXB)** - mijoz tomonidan telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda masofaviy usulda uzatiladigan elektron farmoyishlar asosida taqdim etiladigan bank xizmatlari majmuasi;
- **MONIX mobil ilovasi** - Android va iOS operatsion tizimlariga asoslangan smartfonlar uchun mobil ilova bo'lib, u onlayn rejimda bank operatsiyalarini amalga oshirish, hisoblar holati va boshqa ma'lumotlarni olish uchun mo'ljallangan. Mobil ilovadan foydalanish Foydalanuvchi mobil qurilmaga mos keladigan rasmiy manbadan (ilovalar do'konidan) ilovani yuklab olganda foydalanishi mumkin;
- **Ro'yxatdan o'tish** - Mijozning Ommaviy ofertani qabul qilganligini aniqlash/tasdiqlash imkonini beruvchi Tizimlarga ulanish va identifikatsiya ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha Mijozning harakatlari. Ro'yxatdan o'tkazish tartibi Bank tomonidan belgilanadi. Ro'yxatdan o'tish faqat O'zbekiston Respublikasi mobil operatorlarining mobil raqamidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin;
- **Elektron pochta** - bankdan xabarlar kelib tushishi mumkin bo'lgan va bank mijoz bilan muloqot qilish uchun foydalanadigan mijozning elektron pochta manzili;
- **Identifikatsiya parametrlari** - Tizimlarda ishlash uchun Mijozni autentifikatsiya qilish maqsadida foydalaniladigan Tizimlarda ro'yxatdan o'tgan Login (mijozning mobil telefon raqamiga mos keladi) va Parol;
- **Login** - Mijoz tomonidan Tizimga kirish uchun identifikator sifatida foydalaniladigan, har bir Tizim tomonidan belgilanadigan Mijozning ro'yxatdan o'tish nomi (mijozning mobil telefon raqamiga mos keladi);
- **Parol** - Mijoz tomonidan o'rnatiladigan, Tizimga kirish uchun himoya sifatida ishlatiladigan maxfiy raqamlar ketma-ketligi;
- **Bir martalik kod** - Tizimlarda mijozning harakat yoki to'lovni amalga oshirishga roziligini bildirish uchun bir martalik o'zgaruvchan kod. SMS-kod Mijozning mobil telefon raqamiga SMS-xabar ko'rinishida yoki Bank kartasi birlashtirilgan mobil ilovaga Push-bildirishnoma ko'rinishida keladi;

- **Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (SHTH)** - O'zbekiston Respublikasi fuqarosining milliy pasporti;
- **ABT** - Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi;
- **Autentifikatsiya** - Mijozning unga taqdim etilgan identifikatsiya parametrlariga tegishliligini aniqlash maqsadida Tizimlar tomonidan Mijozni tekshirish jarayoni;
- **Avtorizatsiya** - muayyan shaxsga muayyan harakatlarni amalga oshirish huquqini berish, shuningdek, ushbu harakatlarni amalga oshirishga urinishda ushbu huquqlarni tekshirish (tasdiqlash) jarayoni;
- **Oldindan ma'qullangan kredit limiti** - bu MONIX mobil ilovasida ro'yxatdan o'tish bosqichida Bankning ichki tartib-qoidalariga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Mijoz ma'lumotlarini oldindan baholash asosida Bank tomonidan Mijozga kredit liniyasi shaklida taqdim etishga tayyor bo'lgan summadir. Bu Bankning majburiyati emas, balki Mijoz tomonidan shaxsiy ma'lumotlar tasdiqlangandan va Bank tomonidan yakuniy ma'qullangandan so'ng faollashadigan taklifdir.
- **Kredit liniyasi** - bu Bank tomonidan belgilangan qarz mablag'lari limiti bo'lib, uning doirasida Mijoz ma'lum bir muddat davomida kreditdan foydalanishi, to'lashi va yana kredit olishi mumkin.
- **Operatsiyalar tarixi** - Mijozning Hisoblardan foydalangan holda Tizimlarda amalga oshirgan barcha harakatlarning elektron aks ettirilishi. To'lovlar tarixidan ko'chirma yetarli dalil hisoblanadi va Bank va Mijoz tomonidan Mijozning Tizimlardagi harakatlari to'g'risida ma'lumot sifatida ishlatilishi mumkin;
- **Komprometatsiya** - autentifikatsiya jarayonida identifikatsiya parametrlarini Mijoz tomonidan taqdim etilgani yoki kiritilganiga ishonchning yo'qolishi;
- **Limitlar** - bu ichki qoidalar, qonunchilik talablari yoki shartnoma shartlariga muvofiq qo'llaniladigan muayyan operatsiyalarning miqdori, soni yoki chastotasiga nisbatan o'rnatilgan cheklolardir. Limitlar to'lov va o'tkazma operatsiyalari, naqd pul olish, kredit liniyalari va boshqa moliyaviy operatsiyalar uchun belgilanishi mumkin.
- **MONIX tariflari** - Bank tomonidan tasdiqlangan va tegishli operatsiya (xizmat ko'rsatish) amalga oshirilgan paytda amalda bo'lgan ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun Bankning foiz stavkalari va vositachilik haqi miqdorlari;
- **Xizmatlar** - Mijozga Tizimlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan bank va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi Masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan foydalangan holda xizmatlar;
- **Nizoli operatsiya** - Mijoz tomonidan e'tiroz bildirilgan, xato deb topilgan yoki firibgarlik alomatlari mavjud deb gumon qilingan operatsiya.
- **Keshbek** - Mijoz tomonidan karta orqali amalga oshirilgan operatsiya summasining bir qismini karta hisobiga pul mablag'lari ko'rinishida qaytarish.
- **Asosiy keshbek** - dasturda ishtirok etuvchi barcha operatsiyalar bo'yicha hisoblanadigan belgilangan foizdagi keshbek.
- **Oshirilgan keshbek** - Mijoz tomonidan llovada tanlangan xarajat toifalariga nisbatan qo'llaniladigan oshirilgan foizdagi keshbek.
- **Hamkorlik keshbeki** - Bank bilan hamkorlik qiluvchi savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida amalga oshirilgan xaridlar uchun Mijozga taqdim etiladigan qo'shimcha keshbek. Keshbek miqdori va shartlari hamkor va/yoki Bank tomonidan belgilanadi va Asosiy hamda Oshirilgan keshbekdan yuqori bo'lishi mumkin. Keshbek faqat dastur shartlariga mos operatsiyalar bo'yicha hisoblanadi.

- **Xarajat toifalari** - keshbek hisoblash maqsadida Bank tomonidan tasdiqlanadigan operatsiyalar turlari ro'yxati (supermarketlar, transport, kafe va boshqalar).
- **Keshbekni bekor qilish** - xaridni qaytarish, operatsiyani bekor qilish yoki storniya qilish, ochilgan nizoli holat bo'yicha bekor qilish, shuningdek operatsiyani xato, firibgarlik yoki haqiqiy emas deb topish natijasida ilgari hisoblangan keshbekni bekor qilish.
- **Do'st uchun bonus** - MONIX Ilovasida amal qiluvchi shartlar bajarilgandan so'ng Bank tomonidan Taklif qiluvchi va Taklif etilgan Mijozga hisoblanadigan pul mukofoti.
- **Taklif qiluvchi Mijoz** - MONIX foydalanuvchisi bo'lib, boshqa shaxslarni Ilovada ro'yxatdan o'tishga taklif qilish uchun shaxsiy referal havolasini yuborgan foydalanuvchi.
- **Taklif etilgan Mijoz (Do'st)** - referal havola orqali Ilovani yuklab olib, dastur shartlariga muvofiq muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi.
- **Referal havola** - boshqa foydalanuvchilarni taklif qilish uchun mo'ljallangan shaxsiy havola bo'lib, u orqali Tizim taklif etilgan Mijozlarning ro'yxatdan o'tishini aniqlaydi.
- **Bonus hisobi** - referal dasturi doirasida hisoblangan bonuslar va keshbeklar aks ettiriladigan texnik hisob. Bonus hisobi pul mablag'larini saqlash uchun mo'ljallanmagan bo'lib, faqat keyinchalik Mijoz kartasiga o'tkazilishi mumkin bo'lgan bonuslar miqdorini aks ettiradi. Bonus hisobiga Bank tomonidan belgilangan umumiy maksimal bonus limiti tatbiq etiladi.
- **Hisobni bo'lish** - Mijozga operatsiya summasini boshqa MONIX foydalanuvchilari o'rtasida taqsimlash imkonini beruvchi funksiya.
- **Xizmat ko'rsatuvchi provayder** - Mijoz tomonidan MONIX Ilovasi orqali to'lov amalga oshiriladigan tashkilot.
- **Ommaviy oferta** (keyingi o'rinlarda Shartnoma deb ataladi) - Tizimlarda va monix.uz veb-saytida joylashtirilishi kerak bo'lgan, Bank tomonidan jismoniy shaxslarga Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma shartlarini o'z ichiga olgan hujjat. Ommaviy ofertani Akseptlash Mijoz tomonidan Ommaviy ofertada ko'rsatilgan tartibda Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzishga rozilik hisoblanadi;
- **Aksept (qabul qilish)** - Tizimlarda mavjud Xizmatdan foydalanish paytida, Mijoz ushbu xizmatni amalga oshirish shartlarini qabul qiladi. Bu shartlar Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- **Topshiriq** - Tizimlarda mavjud Xizmatlardan foydalanish maqsadida Mijoz tomonidan yuborilgan, elektron hujjat shaklida qayd etilgan harakat;
- **Elektron hujjat** - elektron shaklda taqdim etilgan va elektron to'lovni amalga oshirish uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'lgan axborot;
- **Elektron to'lov** - Mijozning topshirig'i bo'yicha tizimlarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- **TouchID/FaceID** - mobil qurilmaga o'rnatilgan barmoq izi skaneri yoki yuzning biometrik xususiyatlarini aniqlash orqali Mijozni identifikatsiya qilish funksiyasi;
- **MTT** - milliy to'lov tizimi;
- **XTT** - xalqaro to'lov tizimi;
- **Shaxsiy ma'lumotlar** - Mijozga tegishli yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan ma'lumotlar;
- **Tomonlar** - Bank va Mijozning umumiy nomi.

2-BOB. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Shartnoma doirasida Bank Mijozga quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi (barchasi birgalikda "MONIX" xizmatlar to'plami, iOS va Android uchun MONIX mobil ilovasidan foydalanish orqali):

- Mijoz nomiga hisob ochish va unga xizmat ko'rsatish,
- Visa xalqaro to'lov tizimining kredit-debet bank kartalarini chiqarish,
- MONIX kredit-debet kartasi va/yoki MONIX mobil ilovasi yordamida amalga oshirilgan to'lovlar va pul o'tkazmalari bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish,
- MONIX kredit-debet kartasini chiqarish doirasida kredit liniyasini ochish va unga xizmat ko'rsatish,
- Axborot xizmatlarini taqdim etish,
- Mobil ilovada mavjud bo'lgan boshqa xizmatlarni ko'rsatish;

ushbu Shartnoma va Tariflarda keltirilgan shartlar asosida.

2.2. Ushbu Shartnomani qabul qilish bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-sonli Qonuni qoidalariga muvofiq, Mijoz Bankka o'zining Shaxsga doir ma'lumotlariga tegishli har qanday axborotni saqlash va qayta ishlash, shu jumladan avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash huquqini beradi. Bu huquq Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo'q qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, Mijoz ushbu Shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida o'zining Shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berishga rozilik beradi.

2.3. Xizmatlar faqat MONIX mobil ilovasi orqali ko'rsatiladi va bankning filiallari hamda boshqa tarkibiy bo'linmalarida taqdim etilmaydi.

2.4. Mobil ilovadan foydalanish uchun Mijoz o'z mobil qurilmasiga uning operatsion tizimiga mos keladigan Mobil ilovani (Android, iOS) yuklab olishi va o'rnatishi lozim. Mobil ilovani Apple Store va Play Market ilovalar do'konlaridan yuklab olish mumkin.

2.5. Ushbu shartnomani tuzish orqali Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi:

- "MONIX" xizmatlar to'plami doirasida bank xizmatlarini ko'rsatishda "Ipak Yo'li" AITBning Ommaviy xizmat ko'rsatish taklifini, shu jumladan Tariflarni olgan va ular bilan tanishgan.

- Ro'yxatdan o'tish jarayonini mustaqil ravishda o'tagan va to'liq hamda to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etgan.
- Bankka (yoki uning vakolatli vakillariga) Mijozni (kredit liniyasi bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda har qanday uchinchi shaxslarni ham) qarz miqdori, qarzni to'lash shartlari va usullari hamda boshqa ma'lumotlar haqida xabardor qilishga ruxsat beradi.
- Bankka (yoki uning vakolatli vakillariga) karta mijozning qo'lida bo'lgan paytda, shu jumladan karta mijozga yetkazib berilgan holda, mijoz va uning hujjatlarini suratga yoki videoga olishga rozilik beradi. Bunda, suratga olishdan bosh tortish Mijozga kartani berishni rad etish uchun sabab bo'lishi mumkin, ammo bu majburiy emas.
- Mijoz haqida olingan har qanday ma'lumotni Bank o'zi uchun qulay usulda tekshirishiga rozilik beradi.
- Ushbu Shartnoma va Xavfsizlik tavsiyalarida keltirilgan shartlarga rioya qilmagan holda, Mobil ilovadan foydalanish Hisoblarga ruxsatsiz kirish xavfi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida ogohlantirilgan.

Mijoz, shuningdek, Tavsiyalardagi shartlar buzilgan taqdirda, Bank Mijozning yuzaga kelgan moliyaviy yo'qotishlari uchun javobgar bo'lmasligidan xabardor.

2.6. Tomonlar ushbu Shartnomaning amal qilishi, agar keyingi Hisobvaraqlarni ochishda boshqa shartlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Mijozning avval ochilgan Hisobvaraqlariga yoki Shartnoma amal qilish muddati davomida keyinchalik ochiladigan Mijoz Hisobvaraqlariga tatbiq etilishini e'tirof etadilar.

2.7. Mijoz Internet tarmog'iga kirish va Mobil ilovadan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik, dasturiy va aloqa vositalarini mustaqil ravishda va o'z mablag'i hisobidan ta'minlaydi.

2.8. Tomonlar ushbu Shartnoma doirasida qo'llaniladigan axborotni qayta ishlash, himoya qilish va uzatish tizimlari ishonchli, samarali va xavfsiz ishlashni ta'minlash hamda ruxsatsiz kirishdan himoyalash, shuningdek, Elektron hujjatning haqiqiylikini tasdiqlash uchun yetarli ekanligini tan oladilar.

2.9. Mijozga Mobil ilova orqali masofaviy bank xizmati ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, Bankning ichki me'yoriy hujjatlari va ushbu Ommaviy ofertaga muvofiq amalga oshiriladi.

3-BOB. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Bank quyidagilarni bajarishni o'z zimmasiga oladi:

3.2. Ushbu Ommaviy oferta va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan hajm hamda muddatlarda Xizmatlarni tegishli darajada ko'rsatish;

3.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Shartnomaga muvofiq rasmiylashtirilgan Topshiriqni ijroga qabul qilish. Bunda, tomonlar ushbu Shartnomada belgilangan tartibga ko'ra kelishilgan kirish kanallari orqali Mijoz nomidan yuborilgan Topshiriqlarni Bank tomonidan qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan, mazmuni jihatidan bir xil bo'lgan va Mijoz tomonidan imzolangan qog'oz shaklidagi hujjatlarni Bank tomonidan qabul qilinishiga tengligini e'tirof etadilar.

3.4. Mijozning operatsiyalari va u haqidagi ma'lumotlarni bank siri sifatida saqlash. Tizimdan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar va Mijoz haqidagi ma'lumotlar Bank tomonidan faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollardagina uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin;

3.5. Mijozning Hisobvaraqlari va u tomonidan Tizimlarda amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishini oldini olish choralarini ko'rish.

3.6. Shartnoma, Tariflar va/yoki Ommaviy ofertadagi o'zgarishlar haqida mijozni elektron aloqa kanallari (mobil ilova, SMS yoki elektron pochta) orqali xabardor qilish, shuningdek, Ommaviy ofertaning yangi versiyalarini monix.uz veb-saytida e'lon qilish

3.7. Mijoz quyidagilarga majbur:

3.8. Jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni yoki Bank uchun obro' va moliyaviy xavf tug'diradigan operatsiyalarni amalga oshirmaslik.

3.9. Ushbu Shartnoma doirasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazmaslik.

3.10. Ushbu Ommaviy ofertaga qo'shilish paytiga qadar hujjatda bayon etilgan shartlar bilan o'z vaqtida va to'liq tanishib chiqish.

3.11. Tizimdan foydalanishda ushbu Ommaviy oferta shartlariga rioya etish;

3.12. Xizmatlardan foydalanishdan oldin Bankning bunday xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha cheklovlari bilan tanishib chiqish.

3.13. Tariflarga muvofiq Xizmatlarni ko'rsatish uchun komissiyani (mavjud bo'lsa) to'lash;

3.14. Mobil ilovaga kirish parolini oshkor qilmaslik.

3.15. Xizmat ko'rsatish uchun topshiriqnomani rasmiylashtirishda Bank so'ragan ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish.

3.16. Tizimlarda ro'yxatdan o'tgan mijozning mobil qurilmasi, mobil telefon raqami yo'qolishi, ma'lumotlarning Kompromitatsiyasi yoki shubha tug'ilganda, Bankni darhol xabardor qilish. Bunda Bank yuqorida ko'rsatilgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan Mijoz zararlariga javobgar bo'lmaydi.

3.17. Muntazam ravishda, lekin 30 kunda kamida bir marta monix.uz veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki Tizimlarda Mobil ilova, Shartlar, Tariflardagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish;

3.18. Hisobvaraqlarga ruxsatsiz kirish va pul mablag'larini yechib olish holatlari haqida Bankka darhol xabar berish.

3.19. Internet tarmog'i yoki aloqa vositalari orqali uzatilgan ma'lumotlarning Kompromitatsiya ehtimoli bilan bog'liq xatarlarni o'z zimmasiga olish.

3.20. Mijozning Hisobvaraq bo'yicha qarzdorligi quyidagilar natijasida yuzaga kelgan taqdirda:

- Tashqi tashkilotlar uskunolari yoki xizmatlarining ishlashidagi texnik xatolar;
- Bunday operatsiyalar uchun to'lovlar yoki Bank komissiyalari amalga oshirilgandagi kurs farqi;
- Bankning aybisiz yuzaga kelgan boshqa holatlar,

Mijoz qarzdorlik yuzaga kelgan paytdan boshlab 30 kundan kechiktirmay uni to'lash majburiyatini oladi.

3.21. Ekranda chiqarilayotgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish, taklif etilayotgan variantlardan o'z niyatlariga ko'ra harakatlarni tanlash va kiritilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligini diqqat bilan tekshirish.

3.22. Bankka o'zining aloqa ma'lumotlari, yashash manzili, ro'yxatga olish manzili, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlardagi o'zgarishlar haqida darhol xabar berish, shuningdek, Bankning birinchi talabiga binoan yangi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarning zarur nusxalarini taqdim etish.

3.23. Telefon operatsion tizimi, mobil ilova versiyasi, telefonlardagi antivirusni yangilash va ushbu dasturiy ta'minotdagi antivirus bazalarini yangilash uchun zarur choralarni mustaqil ravishda ko'rish, bu orqali Mobil ilova hisob ma'lumotlarining Kompromitatsiyasi yoki o'g'irlanishi xavfini kamaytirish.

3.24. Shartnomaga muvofiq yuzaga kelgan Bank oldidagi majburiyatlari bo'yicha o'zining barcha mol-mulki va pul mablag'lari bilan javob berish.

3.25. Mijoz o'z huquqlarini amalga oshirishda Bankning huquqlarini, shu jumladan nomulkiy huquqlarini buzishi mumkin bo'lgan harakatlardan tiyilishi kerak.

3.26. Bankning talabiga binoan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Shartnomada nazarda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, ma'lumotlar va axborotni taqdim etish.

3.27. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.28. Bank ushbu Shartnomaga rioya qilmaslik natijasida Mijoz tomonidan Bankka yetkazilgan zararlarni qoplash uchun Hisobvaraqlardan mablag'larni, shuningdek amaldagi Tariflarga muvofiq Mijozning topshiriqlarini bajarganlik uchun Bankka tegishli bo'lgan vositachilik haqlarini yechib olish huquqiga ega.

3.29. Bank turli maqsadlar uchun (tariflar o'zgarishi haqida xabardor qilish, qo'shimcha xizmatlarni faollashtirish, aloqa ma'lumotlarini yangilash, Shartnoma shartlarini o'zgartirish, kredit bo'yicha qarz miqdori, bank tomonidan o'tkaziladigan aksiyalar to'g'risida xabardor qilish, xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha so'rovnomaga o'tkazish, masofaviy xizmat ko'rsatish, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va hokazo, shu jumladan yuqorida ko'rsatilgan harakatlar uchun mijozning roziligini olish) mavjud bo'lgan har qanday aloqa kanallaridan (mobil ilovadagi xabarlar, messenjerlardagi xabarlar, qo'ng'iroqlar va boshqalar) foydalangan holda mijoz bilan aloqa o'rnatish huquqiga ega.

Bank mijoz bilan doimiy ravishda aloqa o'rnatish huquqiga ega.

3.30. Mobil telefon va SMS-parol orqali avtorizatsiyadan foydalangan holda mijozdan rozilik olish tartibi quyidagicha:

- Bank SMS-parolni yaratadi va uni mijozga tasdiqlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni ko'rsatgan holda yuboradi.
- Rozilik bildirilgan taqdirda, mijoz olingan SMS-parolni foydalanilayotgan xizmatning tegishli maydoniga kiritish orqali Bankka yuboradi.
- Agar mobil telefon raqami ro'yxatdan o'tkazilgan va mijozning telefon raqamiga mos kelsa, mijoz taklif etilgan shartlarni qabul qilgan hisoblanadi. Tomonlar SMS-parolning mos kelishini mijozning elektron imzosi sifatida tan oladilar.

3.31. Mobil ilova va masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlarida to'lov operatsiyalarini amalga oshirishda dasturiy majmualarda to'lovni muvaffaqiyatli yakunlashga qaratilgan harakatlarni bajarish mijozning elektron imzosiga tenglashtiriladi.

3.32. Mijozning roziligi, jumladan, quyidagilar bilan tasdiqlanishi mumkin:

- mijoz tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish, kassa hujjatlarini rasmiylashtirish bilan birga bank xizmatlarini olish;

- karta PIN kodini, ilovaga kirish parollarini kiritish, mijozning biometrik ma'lumotlaridan (barmoq izlari, jumladan TouchID texnologiyasidan foydalangan holda yoki yuzni aniqlash, jumladan FaceID texnologiyasidan foydalangan holda) foydalanish.

3.33. Ushbu Ommaviy ofertada va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan asoslarga ko'ra, shuningdek, agar Mijoz tomonidan Xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilgani aniqlangan bo'lsa, Mijozga Xizmatlarni ko'rsatishni rad etish;

3.34. Bank avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ularsiz Mijozning shaxsiy va/yoki aloqa ma'lumotlariga tegishli har qanday ma'lumotlarni qayta ishlash, shu jumladan to'plash, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, tarqatish (shu jumladan Bank hamkorlariga berish), shartnoma tuzish va bajarish munosabati bilan Bankka taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni shaxssizlantirish, bloklash, yo'q qilish va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega va Mijoz bunga rozilik beradi.

Mijoz ushbu bandda ko'rsatilgan ma'lumotlarni Shartnomani bajarish maqsadida, shuningdek Shartnomani bajarish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan har qanday boshqa maqsadlarda oluvchining plastik kartasi emitenti bo'lgan bankka taqdim etishga Bankka rozilik bildiradi;

3.35. Tizimdan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi texnik sabablar yoki boshqa holatlar yuzaga kelgan taqdirda Tizimdan foydalanishni bir tomonlama tartibda nomuayyan muddatga to'xtatib turish. Bunda Bank Mijozlarni yuzaga kelgan nosozlik (buzilish) va uni bartaraf etishning taxminiy muddatlari to'g'risida monix.uz rasmiy sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlarda yoki Tizimlarda xabardor qiladi;

3.36. Hisobvaraqlarga ruxsatsiz kirishga urinish bo'lgan yoki bo'lishi mumkin deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Mijozni xabardor qilmasdan Mijozning Masofaviy bank xizmatini vaqtincha to'xtatib qo'yish;

3.37. Bank ushbu Ommaviy ofertaga bir tomonlama tartibda o'zgartirish/qo'shimchalar kiritish huquqiga ega. Shu bilan birga, Bank yangi ommaviy oferta shartlariga o'zgartirish/qo'shimchalar kiritish kuchga kirishidan 10 (o'n) kalendar kun oldin ma'lumotni monix.uz veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoki Tizimlarda joylashtirish orqali Mijozni xabardor qilish majburiyatini oladi.

3.38. Tariflar vositachilik haqi miqdorini kamaytirish (Mijoz uchun qulay shart-sharoitlar yaratish) tomonga o'zgargan taqdirda, Bank ushbu o'zgarishlarni Tariflarga o'zgartirishlar kuchga kirgan kundan keyingi kundan kechiktirmay va Mijozni xabardor qilmasdan bir tomonlama tartibda qo'llashga haqli;

3.39. Mijozning roziligsiz Hisobvaraqlarga xato kiritilgan pul mablag'larini Hisobvaraqlardan yechib olish.

3.40. Agar operatsiya tranzaksiyalar summasi yoki soni bo'yicha belgilangan cheklovlarni buzsa, shubhali yoki noqonuniy harakatlar belgilarini o'z ichiga olsa, Bank uchun moliyaviy yoki nomoddiy xavf tug'dirsa, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligini buzganlikda gumon qilinsa, Bank sabablarni tushuntirmasdan Mijozga xizmat ko'rsatishni rad etishga haqli.

3.41. Firibgarlik/tavakkalchilikka doir bank operatsiyalarini monitoring qilish va/yoki mijozning qarzini so'ndirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Bank shartnoma amal qilish muddati davomida shartnomada ko'rsatilgan raqamli mijoz telefonining geopozitsiyalashuvini belgilash, shuningdek, telefonning geopozitsiyalashuvi asosida Bank tomonidan olingan mijozning joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega.

3.42. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

3.43. Shartnomaning amaldagi tahriri bilan monix.uz veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki Tizimlarda tanishish;

3.44. Ko'rsatilgan Xizmatlar sifati bo'yicha e'tirozni u ko'rsatilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan kechiktirmay Bankka yuborish;

3.45. Mobil ilovadagi chatga murojaat qilish yoki kartaning orqa tomonida ko'rsatilgan ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilish orqali Mijozlarga xizmat ko'rsatish markazida Xizmatlar, Tariflar va Mobil ilovaning imkoniyatlari bo'yicha maslahat olish;

3.46. Mijoz Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish shartlariga kiritilgan qo'shimchalar va/yoki o'zgartirishlarga rozi bo'lmagan taqdirda, Mijoz Xizmatlardan kelgusida foydalanishni rad etishga haqli. Mazkur Ommaviy ofertaga kiritilgan o'zgartirishlar/qo'shimchalar kuchga kirgandan keyin Xizmatlardan foydalanishni davom ettirish orqali Mijoz bunday o'zgartirishlar/qo'shimchalarga roziligini tasdiqlaydi.

3.47. Tomonlar quyidagilarni o'z zimmasiga oladilar:

3.48. O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga, Bankda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish siyosati talablariga va ushbu Shartnomaga quyidagi manzilda joylashtirilgan korrupsiyaga qarshi talablarga qat'iy rioya qilish: monix.uz

Korrupsiyaga qarshi eslatma: [bu yerda](#)

Korrupsiyaga qarshi siyosat: [bu yerda](#)

4-BOB. OFERTANI RO'YXATDAN O'TKAZISH VA QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Mijoz Mobil ilova va Tizimlarda ro'yxatdan o'tishni MONIX mobil ilovasini yuklab olish, unda ro'yxatdan o'tish va ushbu Ommaviy ofertani qabul qilish orqali mustaqil ravishda amalga oshiradi.

4.2. Shartnoma Mijoz Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish jarayonini yakunlagan paytdan boshlab tuzilgan (qabul qilingan) hisoblanadi. Shartnomaning tuzilishi Mijozning ushbu Shartnoma shartlari bilan to'liq tanishganligini va ularga roziligini anglatadi. Bu mobil ilovada ro'yxatdan o'tish jarayonida hujjatlarga rozilik belgisini qo'yish orqali tasdiqlanadi.

4.3. Axborot xavfsizligi va himoyasini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar hamda boshqa umumiy tushunchalar MONIX veb-saytida monix.uz va Mobil ilovada joylashtiriladi.

5-BOB. MONIX MOBIL ILOVASIDA MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI VA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

5.1. Bank Mijozga ushbu Ommaviy oferta shartlariga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq va bir vaqtning o'zida quyidagi shartlar bajarilganda Mobil ilova orqali bank va boshqa xizmatlarni ko'rsatadi:

- Mijozning Tizimlarda muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tishi;
- Mijozning identifikatsiya parametrlarini kiritishda avtorizatsiya jarayonini muvaffaqiyatli o'tashi;
- Ushbu Ommaviy ofertani qabul qilishi, ya'ni Mijozning Tizimlarda va MONIX mobil ilovasining monix.uz veb-saytida e'lon qilingan shartlarga rozilik bildirishi;
- Hisobvaraqlardagi pul mablag'larining so'ralgan operatsiyani amalga oshirish uchun yetarli bo'lishi;
- Mijozning Tariflarga muvofiq muayyan operatsiyalarni amalga oshirishda o'rnatilgan limitlarga rioya qilishi;
- Mijozning ko'rsatilayotgan Xizmatlar uchun Tariflarga muvofiq vositachilik haqini (agar mavjud bo'lsa) to'lashi;
- Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda cheklovlar mavjud bo'lmasligi;
- MONIX mobil ilovasida Xizmatlarni ko'rsatish uchun texnik imkoniyatning mavjud bo'lishi;
- Muayyan operatsiyalarni amalga oshirish uchun belgilangan boshqa shartlar;
- Bank tizimlarida Mijozning SHTH amal qilish muddati davomida.

5.2. Pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha, Mijoz pul mablag'larini Bank tomonidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banklari tomonidan chiqarilgan milliy valyutadagi bank kartalariga o'tkazishi mumkin.

5.3. Bank Mijozga Bazaviy va Oshirilgan keshbekni o'z ichiga olgan keshbek dasturini taqdim etadi. Bazaviy keshbek dasturda ishtirok etuvchi barcha operatsiyalar bo'yicha hisoblanadi. Oshirilgan keshbek toifalari har bir kalendar oyda yangilanadi. Oshirilgan keshbekni olish uchun Mijoz joriy oy doirasida mobil ilovada mustaqil ravishda toifalarni tanlashi lozim. Tanlangan toifalar tanlangan vaqtdan boshlab joriy oy oxirigacha amal qiladi. Agar Mijoz toifalarni tanlamagan bo'lsa, ushbu oy uchun oshirilgan keshbek hisoblanmaydi. Yangi oyda toifalar yangilanadi va Mijoz oshirilgan keshbek olish uchun toifalarni qayta tanlashi kerak.

5.3.1. Keshbek miqdori, toifalari va uni hisoblash shartlari Bank tomonidan belgilanadi va Mobil ilovada va/yoki Tariflarda ko'rsatiladi. Keshbek Mijozning Bonus hisobiga o'tkaziladi, Mijoz esa uni Bank belgilagan tartibda kartaga chiqarishi mumkin.

5.3.2. Agar Mijoz keshbek dasturi shartlarini buzsa, firibgarlik alomatlari aniqlansa yoki operatsiya bekor qilinsa, Bank keshbekni hisoblamaslik huquqiga ega.

5.3.3. Keshbek faqat MONIX keshbek dasturida ishtirok etuvchi va belgilangan toifalarga (MCC-kodlarga) mos keluvchi savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisoblanadi.

5.3.4. Belgilangan toifalarga (MCC-kodlarga) mos kelmaydigan operatsiyalar, hatto MONIX kartasi orqali amalga oshirilgan bo'lsa ham, keshbek hisoblashda ishtirok etmaydi.

5.3.5. Bank keshbek dasturida ishtirok etuvchi MCC-kodlar ro'yxatini mustaqil belgilaydi va uni Mijozni oldindan xabardor qilmasdan bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega. Amaldagi ro'yxat bilan MONIX ilovasida va/yoki Banking rasmiy veb-saytida tanishish mumkin.

5.3.6. Bank savdo nuqtasi yoki to'lov tizimi tomonidan MCC-kod noto'g'ri biriktirilgani uchun javobgar emas. Bunday hollarda operatsiya qayta hisoblanmaydi va keshbek berilmaydi. Mijoz operatsiyalar lentasidagi "Toifani tuzatish" funksiyasi orqali noto'g'ri MCC toifasi haqida murojaat yuborishi mumkin. Bank murojaatlarning ustuvorligidan kelib chiqib, MCCni tuzatish uchun oqilona choralar ko'radi.

5.3.7. Bank har oy Mijozlarga oshirilgan keshbekni tanlash imkoniyatini ilova orqali xabarnoma yuborish orqali taklif etadi.

5.3.8. Mijoz oshirilgan keshbekni tanlamaslik huquqiga ega. Bunday holda faqat Bazaviy keshbek hisoblanadi.

5.3.9. Bank ayrim savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlarida xaridlar uchun Hamkorlik keshbekini taklif qilishi mumkin. Bunda keshbeklar qo'shilmaydi va eng yuqori stavka qo'llaniladi.

5.3.10. Keshbek summasi keshbek shartlariga mos keluvchi tranzaksiya summasini Bazaviy yoki Oshirilgan keshbek stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi va butun tiyinlargacha yaxlitlanadi.

5.3.11. Bank kartaga chiqarish uchun minimal keshbek bonus summasini belgilashi mumkin (lekin majbur emas). Minimal summa Mobil ilovada ko'rsatiladi.

5.3.12. Hisoblangan keshbek quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- xarid qaytarilganda, operatsiya bekor qilinganda yoki storno qilinganda;
- keshbek noto'g'ri hisoblanganda;
- suiiste'mol yoki dastur shartlari buzilishi aniqlanganda.

Ushbu hollarda Bank Mijozning qo'shimcha roziligisiz bekor qilingan operatsiyaga mos keshbek summasini bekor qilish huquqiga ega.

5.3.13. Agar keshbek Mijoz tomonidan ishlatilgan bo'lsa va keyinchalik bekor qilinishi lozim bo'lsa, Mijoz ushbu summani Bankka qaytarishi shart. Ushbu summa asossiz olingan hisoblanadi va ommaviy ofertaga muvofiq qaytariladi.

Mijoz Bankka bekor qilingan keshbek summasini Mijozning Bankda ochilgan istalgan hisobvaraqlaridan yoki kartalaridan, qonunchilik doirasida, roziliksiz yechib olish huquqini beradi.

Yechib olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- avvalo, Mijozning o'z mablag'lari hisobidan;
- keyin kredit limiti hisobidan.

Agar kredit limiti mavjud bo'lmasa yoki yetarli bo'lmasa, yechib olish faqat Mijozning o'z mablag'lari doirasida amalga oshiriladi. Kredit limiti hisobidan yechib olingan summa bo'yicha Mijozda qarzdorlik yuzaga keladi.

5.4. MONIX ilovasida Hisobni bo'lish funksiyasi mavjud bo'lib, u to'langan summa–ni bir nechta MONIX foydalanuvchilari o'rtasida taqsimlash xizmatini taqdim etadi. Hisobni bo'lish quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilganda mumkin:

- To'lov operatsiyasi MONIX kartasi yordamida amalga oshirilgan bo'lishi;

- Operatsiya muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lishi;
- Hisobni bo'lishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar MONIX Mijozlari bo'lishi.

5.4.1. Ilovada texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda, MONIX Mijozlari bo'lmagan shaxslarga mavjud aloqa kanallari orqali MONIX Mijoz bo'lish uchun taklif havolasi yuborilishi mumkin.

5.4.2. Agar hisobni bo'lish ishtirokchilaridan biri allaqachon o'z ulushi bo'yicha pul o'tkazmasini amalga oshirgan bo'lsa, bunday operatsiyani bekor qilish va qayta bo'lish mumkin emas. Agar pul o'tkazmalari hali amalga oshirilmagan bo'lsa, hisobni bo'lish bekor qilingandan so'ng yangi hisobni bo'lish yaratish mumkin.

5.4.3. Hisob bo'linayotgan operatsiya qismlarining umumiy summasi asosiy operatsiya summasidan oshmasligi kerak.

5.4.4. Bank hisobni bo'lishda ishtirok etuvchi maksimal foydalanuvchilar sonini belgilaydi va uni bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega.

5.4.5. Hisobni bo'lish doirasida Ijrochi (Tashabbuskor) va Ishtirokchilar o'rtasida amalga oshiriladigan barcha pul o'tkazmalari alohida pul o'tkazma operatsiyalari hisoblanadi hamda Tariflar, Bank qoidalari va amaldagi qonunchilikka muvofiq hisobga olinadi va nazorat qilinadi.

5.4.6. Agar operatsiya Tashabbuskor va Ishtirokchilar tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, Bank Mijozlar o'rtasidagi summani taqsimlash hisob-kitoblarining to'g'riligi uchun javobgar bo'lmaydi.

5.5. MONIX Mijozlari Ilovaga yangi foydalanuvchilarni jalb etishga qaratilgan "Jigarlar" referal dasturida ishtirok etishlari mumkin.

5.5.1. Taklif qiluvchi Mijoz boshqa shaxslarga cheklanmagan miqdorda referal havolalar yuborishi mumkin. Har bir referal havola noyob bo'lib, Taklif etilgan Mijozning Ilovaga o'tishi va ro'yxatdan o'tishini hisobga olish uchun mo'ljallangan.

5.5.2. Taklif etilgan Mijoz quyidagi shartlar bajarilganda muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgan hisoblanadi:

- referal havola orqali ilgari MONIX mijozlari ro'yxatdan o'tmagan qurilmadan Ilovaga kirgan bo'lsa;
- MONIX Ilovasini rasmiy manbadan yuklab olgan bo'lsa;
- bir martalik parolni (OTP) kiritgan bo'lsa;
- identifikatsiyadan o'tgan bo'lsa;
- Bank tomonidan ro'yxatdan o'tishi tasdiqlangan bo'lsa.

5.5.3. Bank Do'st uchun bonusni Bank tomonidan belgilanadigan miqdor va shartlarda hisoblaydi. Bonus miqdori va shartlari Ilovada va/yoki Tariflarda (agar mavjud bo'lsa) ko'rsatiladi. Bonus Taklif qiluvchi va Taklif etilgan Mijozga quyidagi shartlar bajarilganda hisoblanadi:

- Taklif etilgan Mijoz ilgari MONIX Mijoz bo'lmagan, Taklif qiluvchi Mijozning referal havolasi orqali Ilovani yuklab olib, muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgan bo'lsa;
- Taklif etilgan Mijoz MONIX jismoniy kartasini buyurtma qilgan va uni muvaffaqiyatli faollashtirgan bo'lsa;
- Taklif etilgan Mijoz MONIX kartasi orqali birinchi muvaffaqiyatli operatsiyani (to'lov yoki karta hisobiga o'tkazma) amalga oshirgan bo'lsa.

5.5.4. Bonus Taklif etilgan Mijoz tomonidan yuqoridagi shartlar bajarilgani tasdiqlangandan so'ng, Taklif qiluvchi Mijozning Bonus hisobiga avtomatik tarzda hisoblanadi.

- 5.5.5. “Jigarlar” referal dasturi shartlari Bank tomonidan bir tomonlama o’zgartirilishi mumkin. Yangilangan shartlar Ilovada va/yoki Bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.
- 5.5.6. Agar suiiste’mol qilish alomatlari aniqlansa, Bank bonuslar hisoblanishini to’xtatib turish yoki bekor qilish, ilgari hisoblangan bonuslarni bekor qilish va/yoki Mijoz hisobini bloklash huquqiga ega.
- 5.5.7. Bank tomonidan shubhali deb topilgan yoki dastur shartlarini buzgan operatsiyalar bo’yicha hisoblangan bonuslar to’lanmaydi.
- 5.5.8. Agar referal dastur bo’yicha bonus olish huquqi vujudga kelgan sanada Bonus hisobidagi maksimal oylik bonus limiti yetarli bo’lmasa, ushbu bonusni hisoblash keyingi oyga ko’chiriladi.
- 5.6. “Jigarlar” referal dasturi doirasida hisoblangan bonuslar va keshbek Mijozning yagona Bonus hisobiga o’tkaziladi. Bonus hisobiga kalendar oy davomida Mijozga hisoblanadigan bonuslar bo’yicha yagona maksimal limit (agar bunday imkoniyat mavjud bo’lsa) tatbiq etiladi. Limit miqdori va mavjud qoldiq haqidagi ma’lumotlar MONIX mobil ilovasida ko’rsatiladi.
- 5.7. Mijoz MONIX Ilovasida mavjud bo’lgan tovarlar va xizmatlar uchun to’lovlarni, jumladan kommunal xizmatlar, mobil aloqa, davlat va boshqa xizmatlar to’lovlari amalga oshirishi mumkin.
- 5.7.1. To’lov Mijoz tomonidan ko’rsatilgan yoki ochiq manbalar va/yoki xizmat ko’rsatuvchi provayderlar bilan integratsiyalar orqali olingan rekvizitlar asosida amalga oshiriladi.
- 5.7.2. Kiritilgan ma’lumotlarning to’g’riligiga (shu jumladan telefon raqami, shaxsiy hisob raqami yoki boshqa talab etiladigan rekvizitlar) Mijoz mustaqil ravishda javobgar bo’ladi.
- 5.7.3. Bank to’lovlarni to’lov tizimlarining texnologik qoidalari va Bank bilan xizmat ko’rsatuvchi provayderlar o’rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq ravishda xizmat ko’rsatuvchi provayderga yuboradi.
- 5.7.4. To’lov muvaffaqiyatli amalga oshirilganligining tasdig’i operatsiya holatining MONIX Ilovasida aks etishi hisoblanadi.
- 5.7.5. Agar xizmat ko’rsatuvchi provayder to’lov mablag’lari kelib tushganini tasdiqlamasa, pul mablag’larini qaytarish provayder qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 5.7.6. Agar to’lov xizmat ko’rsatuvchi provayderga yuborilgan bo’lsa, Bank pul mablag’larini qaytarish muddati va tartibi uchun javobgar bo’lmaydi.
- 5.7.7. Quyidagi hollarda Bank xizmat ko’rsatuvchi provayder tomonidan to’lovni qabul qilishdan bosh tortilishi yoki mablag’lar kechiktirib hisobga olinishi uchun javobgar emas:
- Mijoz tomonidan noto’g’ri ma’lumotlar kiritilganda;
 - xizmat ko’rsatuvchi provayder yoki to’lov tizimlari tomonida texnik nosozliklar yuzaga kelganda;
 - xizmat ko’rsatuvchi provayderda Mijoz hisobining bloklanganligi yoki cheklovlar mavjud bo’lganda.
 - To’lovlarni amalga oshirish uchun komissiya Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq undiriladi.
- 5.8. Bank xavfsizlikni ta’minlash, firibgarlikning oldini olish, Mijoz huquqlarini himoya qilish, shuningdek operatsion yoki texnik cheklovlar aniqlangan hollarda to’lovlarni vaqtincha to’xtatib turish huquqiga ega.

5.9. Bank Mijozga Xizmatlar ko'rsatishni bir tomonlama tartibda va sabablarni tushuntirmagan holda rad etish huquqiga ega, jumladan quyidagi hollarda:

- operatsiya parametrlari Bank tomonidan belgilangan cheklovlarga va/yoki amaldagi qonunchilikda belgilangan hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar summasi va soniga doir cheklovlarga mos kelmasa;
- Mijoz operatsiyalarida shubhali, gumonli yoki noqonuniy operatsiyalar alomatlari aniqlansa yoki ular Bank uchun obro'-e'tibor va/yoki moliyaviy xavflarni keltirib chiqarsa;
- Bankda operatsiya O'zbekiston Respublikasining jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorismni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzgan holda amalga oshirilayotgani haqida shubhalar paydo bo'lsa.

5.10. Bank "MONIX" xizmatlar paketi Tariflariga muvofiq Xizmatlar ko'rsatish uchun Mijozdan komissiya undirish huquqiga ega. Komissiya summasi operatsiyaning umumiy summasiga kiritiladi va Mijozning qo'shimcha topshirig'isiz yechib olinadi. Ushbu Ommaviy ofertani qabul qilgan holda, Mijoz "MONIX" xizmatlar paketi Tariflariga muvofiq komissiyalar undirilishiga roziligini bildiradi.

5.11. Agar Avtorizatsiya vaqtida bank kartasida mavjud qoldiq yetarli bo'lmasa yoki Xizmatlarni ko'rsatish va komissiyani to'lash uchun zarur bo'lgan boshqa hisobvaraqlardagi mablag'lar yetarli bo'lmasa, shuningdek operatsiya summasi belgilangan limitlarga mos kelmasa, Bank topshiriqni qabul qilmaydi va Xizmatlarni ko'rsatmaydi. Bank pul mablag'larini qabul qiluvchi bank va/yoki yuboruvchi bank tomonidan undiriladigan komissiyalar uchun javobgar emas.

5.12. Pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha Xizmatlar Bank tomonidan bank kartasi orqali operatsiyani amalga oshirishga Avtorizatsiya natijasida ruxsat olingan va Bank tomonidan Xizmatlar ko'rsatish bo'yicha zarur harakatlar bajarilgan paytdan boshlab ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

5.13. Bank mablag'larning oluvchining bank kartasiga yoki rekvizitlari bo'yicha hisobga olinishi shartnomada va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlar va boshqa talablar buzilgan holda, oluvchi bank yoki boshqa shaxslar aybi bilan amalga oshirilgan hollarda javobgar bo'lmaydi.

5.14. Bank Mijoz tomonidan Xizmatlar parametrlarini kiritish chog'ida yoki pul o'tkazmasi oluvchisining noto'g'ri rekvizitlari kiritilishi natijasida yo'l qo'yilgan xatolar uchun javobgar emas. Ushbu hollarda Xizmatlar Bank tomonidan Mijozga shartnomaga to'liq muvofiq va lozim darajada ko'rsatilgan deb hisoblanadi, hamda Mijoz pul mablag'lari o'tkazilgan jismoniy yoki yuridik shaxs bilan keyingi hisob-kitoblarni Bank ishtirokisiz mustaqil ravishda hal qiladi.

5.15. Mijoz Shartnoma kuchga kirgandan so'ng, Xizmatlar parametrlarini tasdiqlashdan oldin istalgan vaqtda Xizmatlardan foydalanishni rad etish huquqiga ega.

5.16. Mijoz pul mablag'larini boshqa tijorat banklarining kartalariga va kartalaridan o'tkazishda qo'shimcha komissiyalar undirilishi mumkinligini tushunadi va bunga rozilik bildiradi. Bunday hollarda Xizmatlar Bank tomonidan Mijozga shartnomaga to'liq muvofiq va lozim darajada ko'rsatilgan deb hisoblanadi, hamda Mijoz ushbu komissiyalar bo'yicha oluvchi bilan bo'lgan munosabatlarni mustaqil ravishda tartibga s

6-BOB. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 6.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Tomonlar Shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 6.2. Tomonlar Tizimlar bilan ishlashda olingan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash uchun javobgardirlar.
- 6.3. Bank Hisobvaraqlarga mablag'larning to'g'ri kiritilishi, yechib olinishi, foizlar va komissiyalarning Tariflarga muvofiq to'g'ri hisoblanishi uchun javobgar bo'ladi.
- 6.4. Mijoz o'z nomidan Tizimdan foydalangan holda (uning Logini, Paroli, SMS-kodi va boshqalardan foydalanib) amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.
- 6.5. Agar ushbu Shartnoma shartlarining bajarilmasligi Xizmatlarni ko'rsatish jarayonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarning aybi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, Tomonlar buning uchun javobgar bo'lmaydilar.

Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

6.5.1. Mijozning aybi bilan Hisobvaraqlar va/yoki u tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolgan holatlarda;

6.5.2. Mijoz tomonidan Tizimdan foydalangan holda xato to'lov amalga oshirilganda;

6.5.3. Bankka bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli Tizimlarga kirishni ta'minlash imkoni bo'lmaganda;

6.5.4. Mijozning Tizimlardagi kechikkan yoki noto'g'ri harakatlari uchun, agar ular noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish va/yoki Mijozning shaxsiy ma'lumotlaridagi o'zgarishlar haqida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmaslik natijasida yuzaga kelgan bo'lsa;

6.5.5. Bankning aybisiz Login, Parol, SMS-kod va boshqa ma'lumotlarning oshkor bo'lishi natijasida yuzaga kelgan Mijozning zararlari uchun, bunday hodisaning sodir bo'lishiga olib kelgan sabablardan qat'i nazar;

6.5.6. Mijoz tomonidan Bankni ma'lumotlar buzilganligi va/yoki uning roziligisiz Tizimdan foydalanilganligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinmaganda;

6.5.7. Aloqa liniyalarining sifati va texnik holati uchun;

6.5.8. Mobil aloqa operatorlari tarmoqlarida va Internet-provayderlar xizmatlarida yuzaga keladigan kechikishlar va uzilishlar uchun, chunki bular SMS-xabarlarining kechikishi/yetkazib berilmasligi yoki Internet tizimlarida kechikish/uzilishlarga olib kelishi mumkin;

6.5.9. Mijozning texnik vositalarining zararli viruslar bilan zararlanishi, Mijozning texnik vositalari ishidagi uzilishlar tufayli ko'rilgan zararlari uchun;

6.5.10. Bank tomonidan majburiyatlarni bajarishni imkonsiz qiladigan qonunchilikdagi o'zgarishlar sababli Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun;

6.5.11. Agar Tizimdan foydalanish jarayonida Mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning aybisiz uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolsa.

7-BOB. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar shartnoma majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar bu bajarmaslik yengib bo'lmaz kuch holatlarining oqibati bo'lsa. Bunday holatlarga tegishli shartnomalarda ishtirok etuvchi taraflar ta'sir ko'rsata olmaydigan va ularning yuzaga kelishi uchun javobgar bo'lmaydigan hodisalar, masalan: yong'in, suv toshqini, zilzila, urush va boshqalar kiradi.

7.2. Tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan hujjat yengib bo'lmaz kuchning mavjudligi va uning ta'sir muddatini tasdiqlash uchun yetarli hisoblanadi.

7.3. Yengib bo'lmaz kuch ta'siri natijasida shartnoma majburiyatlarini bajara olmayotgan Tomon, boshqa Tomonni 10 kalendar kuni ichida yozma ravishda (Bank holatida - Bank ofislarida, Bankning korporativ veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki Tizimlarda tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali) ushbu to'siq va uning majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida xabardor qilishi shart.

8-BOB. KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH VA NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

8.1. Tomonlar o'rtasida nizolar paydo bo'lgan taqdirda, 15 kalendar kuni ichida ko'rib chiqiladigan da'vo arizasini yuborish orqali nizolarni sudgacha hal qilish tartibi majburiydir. Bunda Tomonlar nizoni tinch muzokaralar yo'li bilan o'zaro maqbul yechimga kelishga harakat qiladilar.

8.2. Ushbu shartnoma shartlari va ularning bajarilishi bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, nizo tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida hal etiladi. Tomonlar kelishuvga erisha olmagan nizolar va kelishmovchiliklar Bank yoki uning filiali joylashgan hududdagi vakolatli sudda ko'rib chiqiladi.

9-BOB. XIZMATLAR KO'RSATISH MUDDATI VA ULARNI TO'XTATISH TARTIBI

9.1. Ushbu Shartnoma Tomonlar o'rtasida noma'lum muddatga tuziladi va quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- Ikkala Tomonning o'zaro kelishuvi asosida;
- Bank tomonidan Mijozga mo'ljallangan bekor qilish sanasidan 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin yozma xabarnoma yuborish orqali;
- Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda;
- Mijozning Bankdagi hisobvaraqlarini yopish to'g'risidagi yozma arizasi asosida;
- Bank Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilganda;
- Mijozning Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishni rad etish haqidagi yozma arizasi asosida.

9.2. Tizimlarga kirish quyidagi hollarda vaqtincha to'xtatilishi mumkin:

- Bank Mijozning tizimda ro'yxatdan o'tgan ma'lumotlari (Login, Parol) xavf ostida qolgani haqida axborotga ega bo'lganda;
- Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma shartlari buzilganda;
- Vakolatli organlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Mijozning hisobvaraqlari faoliyatini to'xtatib turish to'g'risidagi ko'rsatmalari asosida;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, shuningdek Bankning ichki hujjatlariga muvofiq.

11-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Ushbu Shartnoma tuzilganda (qabul qilinganda) Tizimdan foydalangan holda masofaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha Tomonlar o'rtasida ilgari tuzilgan barcha shartnomalar o'z yuridik kuchini yo'qotadi.

11.2. Agar Mijoz o'z loginini unutgan yoki yo'qotgan bo'lsa, ilovaga kirish FaceID yordamida shaxsni tasdiqlash va keyinchalik yangi parol o'rnatish orqali tiklanadi.

11.3. Agar Mijoz kirish parolini kiritishda uch marta noto'g'ri ma'lumotlarni kiritsa, Tizimlarga kirish bloklanadi. Blokdan chiqarish jarayoni bevosita Mijoz tomonidan FaceID yordamida shaxsni tasdiqlash va keyinchalik yangi parol o'rnatish orqali amalga oshiriladi.

11.4. Ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni bajarish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-sonli Qonuni qoidalariga muvofiq, Mijoz Bankka o'zining shaxsiy ma'lumotlariga tegishli har qanday axborotni saqlash va qayta ishlash, shu jumladan avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash huquqini beradi. Bu huquq Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo'q qilish, shuningdek, ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish uchun Shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga o'tkazishga rozilik beradi.

11.5. Ushbu Shartnomani tuzish (qabul qilish) orqali Mijoz Xizmatdan foydalanish imkoniyati ochilishidan oldin Shartnomani o'rganib chiqqanligini, unga rozi ekanligini va uni o'zi uchun majburiy deb tan olganligini tasdiqlaydi.

12- BOB. XAVFSIZLIK BO'YICHA TAVSIYALAR

Hurmatli mijoz, biz siz uchun karta va mobil ilovadan xavfsiz foydalanish bo'yicha eslatma tayyorladik.

Biz "pulni yostiq ostida saqlang" yoki "kartani hech kimga bermang" kabi rasmiy qoidalardan qochishga harakat qildik va buning o'rniga foydali va amaliy maslahatlar beramiz.

Mobil ilova xavfsizligi

1. Smartfon yo'qolganda yoki o'g'irlanganda birinchi himoya chizig'i - bu qurilmaning o'rnatilgan qulfidir. Bu PIN-kod, grafik kalit yoki biometrik identifikatsiya bo'lishi mumkin. Bunday chora ma'lumotlaringizga kirishni qiyinlashtiradi va kartani bloklash uchun vaqt beradi.
2. Telefoningizda MONIX ilovasiga kirish uchun PIN-kodni, masalan, qaydlarda saqlamang. Bu oddiy tuyulishi mumkin, lekin ko'pchilik shunday qiladi. Agar siz ham shunday qilsangiz, buni eslatma sifatida qabul qiling.
3. Smartfonni yangisiga almashtirganingizda, sizdan myID davlat xizmati orqali qayta identifikatsiyadan o'tishingizni so'raymiz.

Karta xavfsizligi

4. Kartani uchinchi shaxslarga bermang. Bu maslahat oddiy tuyulishi mumkin, lekin uni yana bir bor eslatib o'tamiz.
5. Agar karta yo'qolgan yoki o'g'irlangan bo'lsa, uni bloklash uchun zudlik bilan bankka murojaat qiling.
6. Kartaning orqa tomonidagi kodni hech kimga (hatto bank xodimiga ham) aytmang. Xodimlar bunday kodni so'rashmaydi.
7. Karta ma'lumotlari (CVV-kod, amal qilish muddati, PIN-kod) faqat to'lovlarni amalga oshirish uchun zarur. Hech qachon ularni uchinchi shaxslarga bermang, hatto ular o'zlarini bank, davlat organlari yoki boshqa nufuzli tashkilotlar xodimlari deb tanishtirsalar ham.
8. Internet orqali xarid qilayotganda, karta ma'lumotlarini kiritayotgan saytga ishonchingiz komil bo'lsin. Masalan, www.poluchite1milliondollarov.com sayti firibgarlik bo'lishi va kartangiz ma'lumotlarini to'plash uchun yaratilgan bo'lishi ehtimoli yuqori.

Ijtimoiy muhandislik

Ijtimoiy muhandislik - firibgarlikning eng keng tarqalgan usuli. Quyidagi holatlarga e'tibor bering:

9. Agar sizga bank nomidan qo'ng'iroq qilishsa yoki xabar yuborishsa, lekin siz o'zingiz aloqaga chiqmagan bo'lsangiz, kodlar, parollar yoki PIN-kodlar kabi hech qanday maxfiy ma'lumotlarni aytmang.

10. Agar sizga kartadan pul yechib olingani haqida xabar berishsa va karta ma'lumotlarini tasdiqlash, "himoyalangan hisob"ga pul o'tkazish yoki boshqa harakatni amalga oshirish so'ralsa - bu firibgarlikdir. Suhbatni tugatib, bank bilan bevosita bog'laning.

11. Agar sizga bosim o'tkazilsa, karta ma'lumotlarini tezroq berish yoki pul o'tkazishga undashsa, to'xtang, vaziyatni tahlil qiling va bank bilan mustaqil ravishda bog'laning.

12. Ijtimoiy tarmoqlarda kimdir pul bilan yordam so'rasa, uning akkauntini buzib kirgan jinoyatchi emas, balki haqiqatan ham sizning tanishingiz ekanligiga ishonch hosil qiling. Aniqlashtiruvchi savol bering yoki bu odamga qo'ng'iroq qiling.

13. Asossiz daromad va'dalariga ishonmang (masalan, avtomobil yutib olish, davlatdan kompensatsiya olish yoki mukofot evaziga so'rovnomalarda qatnashish). Agar sizdan "yutuq"ni olish uchun "kichik komissiya" to'lash so'ralsa, bu firibgarlikdir.

14. Narxi pasaytirilgan tovarlar taklifiga ehtiyotkorlik bilan yondashing. Firibgarlar oldindan to'liq to'lovni talab qilib, mahsulotni yubormasliklari mumkin. Shuningdek, ular sizni to'lov qilish uchun soxta saytga yo'naltirishi mumkin.

Agar shu yerga qadar o'qib chiqqan bo'lsangiz, ajratilgan vaqtingiz uchun sizdan minnatdormiz. Ishonchimiz komilki, ushbu tavsiyalar moliyaviy xavfsizligingizni ta'minlashga yordam beradi.

2-QISM. "MONIX" XIZMATLAR PAKETI DOIRASIDA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BANK KARTALARINI CHIQRISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISHNING UMUMIY SHARTLARI

1-BOB. ASOSIY QOIDALAR

- 1.1. Bank Mijozga Shartnoma asosida Bank kartasini chiqaradi, bunda Bank kartaga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha Hisobvaraqlarni ochadi.
- 1.2. Bank O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va Bankning ichki qoidalariga muvofiq Karta (va Hisobvaraq) ochishni rad etish huquqiga ega.
- 1.3. Mijoz kredit liniyasini taqdim etish MONIX mobil ilovasida muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgandan so'ng o'tkazilgan ichki baholash natijalariga ko'ra bankning ixtiyoriga ko'ra amalga oshirilishiga rozilik bildiradi, bunda Mijozning oldindan ma'qullangan kredit limitini qabul qilish yoki rad etish huquqi saqlanib qoladi.
- 1.4. Mijoz Kredit liniyasini taqdim etish bankning ixtiyoriga ko'ra, o'tkazilgan riskni baholash natijalari asosida amalga oshirilishiga rozilik bildiradi.
- 1.5. Mijoz Bankka istalgan vaqtda kredit limitini o'zgartirish (oshirish, kamaytirish yoki bekor qilish) huquqini beradi.
- 1.6. Mijoz ushbu hujjatda nazarda tutilgan "MONIX" xizmatlar paketi doirasida bank xizmatlarini ko'rsatishda bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish shartlariga (bundan buyon matnda bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish shartlari deb yuritiladi) rioya qilish majburiyatini oladi.
- 1.7. Mijoz O'zbekiston Respublikasining barcha banklari tomonidan emissiya qilingan milliy valyutadagi 20 tadan ko'p bo'lmagan bank kartalariga (shu jumladan, virtual va kobeydjing kartalariga) egalik qilish huquqiga ega.
- 1.8. Ko'rsatilgan limitdan oshgan taqdirda, Bank Mijozga yangi bank kartasini chiqarishni rad etishga haqli. Bank Mijozning bir vaqtning o'zida Bank doirasida milliy valyutadagi beshtadan (5) ortiq bank kartalariga (shu jumladan virtual va kobeydjing kartalariga) egalik qilishiga cheklov o'rnatadi. Ushbu limitga erishilganda qo'shimcha kartalar chiqarilmaydi.

2-BOB. "MONIX" XIZMATLAR PAKETI DOIRASIDA BANK KARTASINI CHIQRISH VA UNGA XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI

- 2.1. Xizmatlarni ko'rsatish uchun Bank mijozga Visa xalqaro to'lov tizimining MONIX kredit-debet kartasini chiqaradi. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish jarayonidan o'tish orqali Bank va Mijoz MONIX xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzadilar. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish va Ommaviy ofertani qabul qilish sanasi shartnomaning boshlanish sanasi hisoblanadi.
- 2.2. Kartani chiqarish tartibi Bank tomonidan mustaqil ravishda Bank ixtiyoriga ko'ra belgilanadi. Kartani chiqarish to'g'risida qaror qabul qilinganda, Bank Mijozga kartani chiqaradi va ushbu karta yordamida hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Bank kartani chiqarish uchun Tariflarga muvofiq komissiya olishi mumkin. Mijoz Bankka tariflarda ko'rsatilgan miqdordagi komissiyani Karta hisobidan yechib olishni topshiradi.

2.3. Karta mijozga beriladi

2.3.1. ilovada mavjud bo'lgan virtual shaklda yoki

2.3.2. vakolatli bank tomonidan yetkazib beriladi yoki

2.3.3. Bankning tarkibiy bo'linmasida yoki

2.3.4. mijozning kartani olganligini tasdiqlashni kafolatlaydigan boshqa usul bilan uzatiladi.

2.4. Jismoniy karta mijozga nafaol holatda uzatiladi, faollashtirish Mijoz tomonidan ilovaga kirish parolidan foydalangan holda Autentifikatsiyadan o'tgandan so'ng mobil ilovada amalga oshiriladi. Kontaktsiz to'lov usuli karta PIN kodi bilan tasdiqlangan birinchi amal bajarilganidan keyin avtomatik faollashadi.

2.5. Kartadan foydalanishda Mijozni keyingi identifikatsiya qilish uchun Mijoz Ilovada kartaning PIN-kodini o'rnatishi kerak. Mijoz kelajakda PIN-kodni Mobil ilova yoki bankomat orqali o'zgartirishi mumkin.

2.6. Hisob egasi bo'lmagan shaxsning Karta yoki uning rekvizitlaridan foydalanishi taqiqlanadi.

2.7. Karta kartada ko'rsatilgan yil/oyning oxirgi kunigacha amal qiladi. Kartaning amal qilish muddati tugashi Shartnomaning amal qilish muddati tugashini anglatmaydi.

2.8. Kartaning amal qilish muddati tugagach, karta Bankning ixtiyoriga ko'ra qayta chiqarilishi mumkin. Ushbu holatda kartani qayta chiqarish uchun mijozning arizasi talab qilinmaydi.

2.9. Yo'qolgan, o'g'irlangan, shikastlangan, ruxsatsiz foydalanilgan, ism yoki familiya o'zgartirilgan taqdirda mijoz kartani muddatidan oldin qayta chiqarishi mumkin. Mobil ilova orqali kartani qayta chiqarishga buyurtma berish mumkin. Muddatidan oldin qayta chiqarish uchun buyurtma berilgan vaqtda amalda bo'lgan Tariflar asosida komissiya olinishi mumkin.

3-BOB. OPERATSIYALAR VA TO'LOVLAR

3.1. To'lov kartasi va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda operatsiyalar avtorizatsiya bilan ham, avtorizatsiyasiz ham amalga oshirilishi mumkin. To'lov tizimi qoidalarida nazarda tutilgan hollarda avtorizatsiya amalga oshiriladi. Bunda avtorizatsiya paytidagi operatsiya summasi Bank tomonidan operatsiyalar reestrini qayta ishlash paytidagi operatsiya summasidan farq qilishi mumkin.

3.2. Bank tomonidan to'lov kartalari bo'yicha operatsiyalarni qayta ishlash sanasi mijoz tomonidan ularni bajarish sanasiga to'g'ri kelmasligi mumkin. To'lovni amalga oshirishning oxirgi muddati tegishli to'lov tizimi tomonidan belgilanadi.

3.3. To'lov kartasidan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar, agar ular tegishli PIN-kod, 3D-Secure kodi, karta rekvizitlari, autentifikatsiya ma'lumotlari (shu jumladan mobil ilovadagi operatsiyalar) va/yoki SMS-kodni kiritish orqali bajarilgan bo'lsa, mijoz tomonidan tasdiqlangan va o'z qo'li bilan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

3.4. To'lov kartasi va/yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda operatsiyalarni, shuningdek shartnoma doirasidagi boshqa operatsiyalarni amalga oshirganlik uchun Bank Tariflarga muvofiq haq oladi.

3.5. Mijoz Shartnoma bo'yicha qarzidorlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pul mablag'larini o'tkazish, bankomat, boshqa o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalari orqali kartani to'ldirish yoki boshqa usullar orqali to'lashi mumkin.

3.6. Mijoz shartnoma shartlarini yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda to'lov kartasidan foydalanishi natijasida Bank tomonidan qilingan barcha xarajatlarni qoplash majburiyatini oladi.

3.7. Boshqa MONIX mijoziga o'tkazma, hisobvaraqa o'tkazma tashabbusi bilan chiqilganda, Bank avtomatik ravishda oluvchi va jo'natuvchining zarur rekvizitlarini to'lov topshiriqnomasiga to'ldiradi. Bu haqidagi axborot Mobil ilovaning bir yoki bir nechta ekranida ko'rsatiladi. O'tkazish (Davom ettirish, To'lov) tugmasini bosish orqali Mijoz barcha rekvizitlar to'g'ri to'ldirilganligini tasdiqlaydi va shu tariqa Mijoz o'tkazmani amalga oshirish uchun Bankka To'lov topshiriqnomasini beradi.

3.8. Boshqa MONIX mijoziga pul o'tkazilganda, jo'natuvchi qabul qiluvchining mobil ilovadagi hisobiga yuklagan rasmini ko'radi. Qabul qiluvchi esa jo'natuvchining suratini operatsiyalar tarixi va/yoki operatsiyalar tafsilotlarida ko'rishi mumkin.

3.9. Shu bilan birga, agar pul o'tkazmasini oluvchining bank oldida qarzi bo'lsa, Bank oluvchi tomonidan olingan mablag'larni Mijozning qarzini to'lashga yo'naltirish huquqiga ega.

3.10. Kartalar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun valyuta kurslarini belgilashning o'ziga xos xususiyatlari:

3.10.1. Karta bilan operatsiyalar (bankomatdagi operatsiyalar, POS terminallaridagi operatsiyalar, mobil ilovadagi operatsiyalar, P2P o'tkazmalar operatsiyalari, tashqi xizmatlar yordamida boshlangan P2P o'tkazmalar) amalga oshirilganda, agar operatsiya valyutasi Karta hisobvarag'i valyutasidan farq qilsa, Bank operatsiya amalga oshirilgan paytda amal qiladigan Bank tomonidan belgilangan ayirboshlash kursini qo'llaydi. Operatsiya amalga oshirilgan kurs mobil ilovaning Operatsiyalar tasmasida operatsiya tafsilotlarida ko'rsatiladi.

3.10.2. Joriy kurs Mijozga Mobil ilovada ko'rsatiladi.

3.11. O'zbekiston Respublikasining boshqa banklari kartalariga P2P o'tkazmalarining xususiyatlari:

3.11.1. O'zbekiston Respublikasining boshqa banklari kartalariga P2P o'tkazmalarini amalga oshirishda Bank bir oylik o'tkazmalarining maksimal miqdoriga cheklovlar qo'yishga haqli. Limitlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari talablari, Bankning vakolatli bo'linmalari tomonidan belgilangan ichki nazorat qoidalari asosida belgilanadi.

4-BOB. KREDIT LINIYASINI TAQDIM ETISH VA XIZMAT KO'RSATISH

4.1. Kredit limiti, uning amal qilish muddati ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq belgilanadi.

4.2. Kredit limiti Bank tomonidan ichki tartib-qoidalar asosida hisoblanadi va belgilanadi hamda Mijozga mobil ilova yoki boshqa masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali elektron shaklda xabar qilinadi.

4.3. Bank o'z xohishiga ko'ra limitni qayta ko'rib chiqish (shu jumladan, kredit limitini chaqirib olish) huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda Mijoz bankka istalgan vaqtda mijozning to'lov qobiliyatini tekshirish maqsadida uning nomidan KATM va boshqa davlat xizmatlariga zarur ma'lumotlarni olish uchun murojaat qilish huquqini bergan.

4.4. Yangi limit va uning kuchga kirish muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlar Mijozga mobil ilovadagi matnli xabar yoki xabarnoma orqali yuboriladi.

4.5. Mijoz yangi Kredit limiti o'rnatilgandan so'ng tovarlar yoki xizmatlar uchun hisob-kitob qilishda Kartadan foydalanish, naqd pul yechib olish yoki pul o'tkazmasini amalga oshirish orqali Kredit limitining yangi miqdoriga roziligini tasdiqlaydi.

4.6. Kredit limitini taqdim etish shakli: kredit-debet kartasidagi qayta tiklanadigan kredit liniyasi. Limit kartadan xarid qilish, naqd pul olish yoki kartadan pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

4.7. Mijoz tariflarda ko'rsatilgan Bank xizmatlari narxini hisobga olgan holda ajratilgan kredit limiti doirasida karta bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishi shart.

4.8. Bank Mijozga karta yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda mijoz tomonidan amalga oshirilgan karta bo'yicha barcha turdagi chiqim operatsiyalarini to'lash, shuningdek Mijoz tomonidan Shartnomada nazarda tutilgan Komissiyalar va boshqa to'lovlarni to'lash uchun Kredit limitini beradi.

4.9. Foydalanilgan kredit limiti summasiga Bank foizlar hisoblaydi. Kredit hisobiga haqiqatda foydalanilgan mablag'lar uchun kredit limitidan foydalanilgan har bir kalendar kun uchun foizlar yiliga 365/366 kunlik bazadan kelib chiqib, Tariflarda ko'rsatilgan foiz stavkalariga muvofiq hisoblanadi. Imtiyozli davr muddati tugagandan so'ng barcha operatsiyalarga foizlar hisoblanadi.

4.10. Ushbu Shartnoma doirasida Tomonlar Kredit bo'yicha hisob-kitoblar va foizlarni to'lashning quyidagi tartibi to'g'risida kelishib oldilar:

4.10.1. MONIX Kredit-debet kartasi shartlarida belgilangan sanada (bundan buyon matnda ko'chirma sanasi deb yuritiladi) Bank Mijozning krediti, Minimal to'lov va Minimal to'lovni to'lash sanasi bo'yicha qarzdorlikning umumiy miqdorini hisoblab chiqadi va ularni Mijozga Mobil ilovada va/yoki Mobil ilovaga push-bildirishnoma yuborish orqali va/yoki mijozning telefon raqamiga SMS-bildirishnoma yuborish orqali xabar beradi.

4.11. Karta hisobvarag'ida o'z mablag'lari bo'lmagan taqdirda, hisoblangan foizlar, komissiyalar va jarimalarni yechib olish kredit limiti hisobidan amalga oshiriladi. Agar bunda taqdim etilgan kredit limitidan qayta foydalanish yuz bersa, Mijoz yuzaga kelgan ortiqcha xarajatlarni eng yaqin muddat ichida, biroq Minimal to'lovni to'lash sanasidan kechiktirmay to'lash majburiyatini oladi. Shu bilan birga, Bank qoidabuzarlik bartaraf etilgunga qadar karta bo'yicha keyingi xarajat operatsiyalarini taqiqlashga haqli. Qoidabuzarlik bartaraf etilganda, Bank qoidabuzarlik bartaraf etilgan kundan keyingi ish kundan kechiktirmay kartadan foydalanishga qo'yilgan taqiqni olib tashlash majburiyatini oladi.

4.12. Qarzni va Minimal to'lovni hisoblash tartibi:

- Ko'chirma sanasida Bank Mijozning to'liq qarzini, shu jumladan foydalanilgan kredit limitini, shuningdek amaldagi tariflarda nazarda tutilgan barcha foizlar va komissiyalarni hisoblab chiqadi va shu tariqa to'liq qarzni shakllantiradi.

Minimal to'lov umumiy qarz summasining 5 foizi (asosiy qarz summasi, hisoblangan foizlar va boshqa majburiy to'lovlar), shuningdek, muddati o'tkazib yuborilgan summaning to'lanmagan qismi (mavjud bo'lsa), shuningdek, belgilangan kredit limitidan oshgan summalar sifatida belgilanadi.

4.13. Kredit karta bo'yicha foizlarni hisoblash tartibi va imtiyozli davr:

- Agar mijoz oldingi ko'chirmada ko'rsatilgan Kredit liniyasi bo'yicha qarzni keyingi ko'chirma sanasigacha to'liq to'lagan bo'lsa, Bank ushbu davrda kredit karta bo'yicha amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun foiz hisoblamaydi.

- Imtiyozli davr 27 kundan 62 kungacha - kredit mablag'laridan foydalangan paytdan boshlab minimal to'lov sanasigacha davom etadi.

- Agar mijoz keyingi ko'chirma sanasigacha qarzning to'liq summasini to'lamagan bo'lsa, bank MONIX kredit-debet kartasi bo'yicha shartlarda ko'rsatilgan stavkaga muvofiq foizlarni karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiya o'tkazilgan sanadan boshlab hisoblashni boshlaydi va qarz to'liq to'langunga qadar hisoblashni davom ettiradi.

4.14. Bank shubhali operatsiyalarni yoki davlat organlarining taqiqlari tatbiq etiladigan operatsiyalarni cheklash huquqiga ega.

4.15. Tomonlar karta yoki karta hisobiga kelib tushgan har qanday to'lovdan Bank kredit bo'yicha qarzni to'liq so'ndirgunga qadar ishlatish huquqiga ega ekanligini kelishib oldilar.

4.16. Belgilangan sanagacha kredit bo'yicha minimal to'lov to'lanmagan taqdirda, Bank Mijoz tomonidan Shartnoma shartlari buzilishi bartaraf etilgunga qadar Karta bo'yicha keyingi xarajat operatsiyalarini taqiqlash huquqiga ega. Shu bilan birga, mijozga Bank tariflariga muvofiq Minimal to'lovni to'lamaganligi uchun jarima va/yoki penya hisoblanishi mumkin. Minimal to'lovni to'lamaslik fakti Mijoz tomonidan shartnoma shartlarini buzish hisoblanadi. Shunday qilib, Mijoz o'z majburiyatlarini bajarishni kechiktirgan hisoblanadi. Bank qonunchilik talablariga muvofiq KATM va boshqa organlarni tegishli tarzda xabardor qiladi.

